

“Kelajak soati” darsining 9-11-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:
28-mavzu: “O‘zbek madaniyati”

Dars maqsadi: Umumiy maqsad:

Annotatsiya: Mazkur dars yuqori sinf o‘quvchilarida o‘zbek xalqining boy madaniy merosi, milliy an‘analari, urf-odatlar, qadriyatlari hamda o‘zbek san‘ati va adabiyotining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida chuqur va tizimli bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. Dars davomida o‘quvchilarning milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishi ko‘zda tutiladi.

Mashg‘ulotlar interfaol metodlar, tahliliy va mantiqiy savol-javoblar, guruhli va yakka tartibdagi topshiriqlar, taqdimotlar hamda muhokamalar asosida tashkil etilib, o‘quvchilarning tanqidiy va mustaqil fikrlash, o‘z fikrini asoslab berish, madaniy merosga ongli munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu dars ishlanmasi yuqori sinflarda ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi fanlarni o‘qitishda samarali qo‘llash uchun mo‘ljallangan.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarda o‘zbek milliy madaniyatining mazmun-mohiyati, tarixiy ildizlari va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini chuqur anglashni shakllantirish, milliy urf-odatlar, an‘analari, qadriyatlar va madaniy merosning inson ma‘naviy kamolotidagi ahamiyatini hayotiy misollar orqali tushuntirish;

2. Milliy madaniyatga befarqlik, tarixiy merosni mensimaslik va begona madaniyatlarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilishning salbiy oqibatlarini anglatish, milliy o‘zlikni yo‘qotmasdan zamonaviy jamiyatda yashash zarurligini dalillar, maqollar va hayotiy misollar asosida ko‘rsatish;

3. O‘zbekiston jamiyatida milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, madaniyat va san‘at sohasidagi islohotlar, milliy bayramlar, tarixiy obidalar hamda madaniy tadbirlar haqida aniq tasavvur berish, ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini tushuntirish;

4. O‘quvchilarda milliy madaniyatga hurmat va sadoqat bilan munosabatda bo‘lish, ajdodlar merosini asrab-avaylash, uni zamonaviy hayot bilan uyg‘unlashtirish, o‘zining fuqarolik burchi va jamiyat taraqqiyoti uchun mas‘uliyatni chuqur his etish, ishtiyoqini kuchaytirish hamda milliy g‘urur va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish.

Asosiy g‘oyalar: Milliy madaniyat – xalqning tarixiy xotirasi, ma‘naviy tayanchi va jamiyat taraqqiyotining mustahkam poydevoridir. O‘z milliy madaniyatini chuqur anglagan o‘quvchi ma‘naviy yetuk, tafakkuri keng, o‘zligini tanigan va kelajakka ishonch bilan qaraydigan shaxs sifatida voyaga yetadi. Milliy madaniyat qadrlangan jamiyatda esa ijtimoiy birlik, barqarorlik va taraqqiyot uzviy rivojlanadi.

“Milliy madaniyat immuniteti” – bu o‘quvchining ichki ma‘naviy kuchi bo‘lib, u begona va zararli g‘oyalarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish, milliy qadriyatlarga befarqlik, tarixiy xotirani unutish kabi salbiy holatlarga qarshi turish qobiliyatini shakllantiradi. Milliy madaniyatni qadrlagan o‘quvchi urf-odat va

an'analarni ongli ravishda anglaydi, ularni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtira oladi hamda o'z madaniy merosidan faxrlanadi.

Har bir o'quvchi milliy madaniyatni avvalo oilada, maktabda va kundalik hayotda amalda namoyon etishi lozim: kattalarga hurmat, kichiklarga e'tibor, milliy bayram va marosimlarda faol ishtirok etish, ona tilini e'zozlash, milliy kiyinish va muomala madaniyatiga amal qilish kabi oddiy, ammo muhim qadriyatlar orqali o'z ma'naviy qiyofasini shakllantiradi.

Milliy qadriyatlarga sadoqat, ajdodlar merosiga hurmat va ma'naviy poklik – barkamol shaxs kamolotining eng to'g'ri yo'lidir. Milliy madaniyatni asrab-avaylagan va rivojlantirgan avlod – Yangi O'zbekistonning ma'naviy yetuk, vatanparvar va bunyodkor kelajagini barpo etadi.

“Bugun mehnat qilsam, ertaga rohat topaman – o'zim ham, jamiyatim ham.”

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy:

- O'quvchilar **milliy madaniyat, milliy qadriyatlar, urf-odat, an'ana, madaniy meros va milliy o'zlik** tushunchalarini aniq farqlab, ularning shaxs kamoloti, jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyotidagi o'rnini izohlab beradilar.

- **“Milliy madaniyatga sadoqat”** tushunchasining mazmunini tushuntiradilar: uni begona va zararli g'oyalarga ko'r-ko'rona taqlid qilish, befarqlik va tarixiy xotirani unutishga qarshi ichki ma'naviy va ongli pozitsiya sifatida sharhlaydilar.

- Milliy qadriyatlarga beparvolik, madaniy merosni mensimaslik va o'zligini inkor etish kabi holatlarning shaxsiy ma'naviy rivojlanish hamda jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sirini hayotiy misollar orqali asoslaydilar.

- Milliy madaniyatni kundalik hayotda namoyon etish yo'llarini – ona tilini e'zozlash, urf-odatlarga amal qilish, milliy bayram va marosimlarda faol ishtirok etish, muomala va kiyinish madaniyatiga rioya etish kabi jihatlarni to'g'ri talqin qiladilar hamda ularning barkamol shaxs shakllanishidagi ahamiyatini anglaydilar.

2. Hissiy va qadriy:

- Milliy madaniyatni anglashga, ajdodlar merosiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga va milliy qadriyatlarga sodiq yashashga nisbatan ichki ehtiyoj hamda ijobiy munosabat shakllanadi.

- Milliy urf-odat va an'analarga amal qilish, tarixiy-madaniy meros bilan faxrlanish hamda milliy bayram va marosimlarda faol ishtirok etish orqali ma'naviy qoniqish va g'urur hissi kuchayadi, milliy madaniyatning qadri chuqur anglanadi.

- Vatanga sadoqat, jamiyatda madaniy muhitni asrash va rivojlantirish istagi, befarqlik va ma'naviy loqaydlik bilan jamiyatga zarar yetkazmaslik mas'uliyati shakllanadi, o'zini **“Milliy qadriyatlarni e'zozlovchi, ma'naviy yetuk avlod vakili”** sifatida his etish rivojlanadi.

3. Amaliy ko'nikmalar:

- Kundalik hayotda milliy madaniyat va qadriyatlarga amal qiladi: ona tilida to'g'ri va ravon so'zlash, muomala madaniyatiga rioya etish, kattalarga

hurmat, kichiklarga e'tibor ko'rsatish, milliy urf-odat va an'analarga ongli ravishda amal qilish;

- Turli ijtimoiy va madaniy vaziyatlarda to'g'ri yo'lni tanlash ko'nikmasi shakllanadi (masalan, begona madaniy ta'sirlarga tanqidiy yondashish, milliy qadriyatlarga zid bo'lgan holatlarga ongli munosabat bildirish, o'z pozitsiyasini madaniyatli tarzda ifodalash);

- O'z madaniy xulqi va xatti-harakatlarini tahlil qilish, muomala va xulqdagi kamchiliklarni anglash hamda ularni bartaraf etishga intilish odati qaror topadi, milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishga oid shaxsiy faoliyatini rejalashtirish va takomillashtirish malakasi rivojlanadi.

4. Ijtimoiy-pedagogik:

- Sinfda milliy qadriyatlarga asoslangan sog'lom ma'naviy muhit shakllanadi: o'zaro hurmat, hamkorlik, bag'rikenglik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, madaniyatli muomala va adolatli munosabatlar kuchayadi.

- Do'stlar, sinfdoshlar va o'qituvchi bilan ochiq, ishonchga asoslangan muloqot hamda hamkorlik odatlari rivojlanadi, jamoa bilan ishlashda madaniy mas'uliyat, intizom va fuqarolik pozitsiyasi namoyon bo'ladi.

- Guruhli ishlar, munozaralar, ijodiy topshiriqlar va rolli mashg'ulotlar orqali o'quvchilar milliy madaniyatning ahamiyati va qadriyatlarini bir-biriga tushuntiradilar, urf-odat va an'analarni asrash hamda targ'ib qilishda faol ishtirok etadilar.

- O'quvchilar jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti milliy madaniyat, ma'naviy birlik va o'zaro hurmatga tayanishini anglaydilar, har bir ongli va madaniyatli xatti-harakat umumiy rivojga hissa qo'shishini tushunib, shu yo'lda faol fuqarolik pozitsiyasini egallashga intiladilar.

Metapredmet: Turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo'llaniladigan umumiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Masalan;

- **Adabiyot:** O'quvchilar milliy madaniyat va ma'naviyatga oid maqol, hikmatli so'z va adabiy parchalarni topadilar ("Elga hurmat – o'zingga hurmat", "Til – millat ko'zgusi", "Ajdodini bilgan – o'zligini biladi"). Har bir maqol yoki hikmatning ma'nosini 1-2 jumlada sharhlab, uni o'z hayoti yoki jamiyatdagi hayotiy vaziyatlar bilan bog'laydilar.

- **Tarix:** Milliy madaniyat rivojida muhim o'rin tutgan tarixiy shaxslar, allomalar, me'moriy obidalar yoki madaniy markazlar misolida madaniyatning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini tahlil qiladilar (masalan, Amir Temur davridagi madaniyat, Registon majmuasi, jadidlar ma'rifatparvarligi).

- **Ona tili va muloqot:** Juftlik yoki kichik guruhlarda 60 soniyalik minitnutq tayyorlaydilar: "**Milliy madaniyat – mening o'zligim**" yoki "**Men milliy qadriyatlarni kundalik hayotda qanday namoyon etaman?**" mavzularida fikr bildiradilar. Nutq jarayonida ravonlik, madaniyatli muomala va dalillash ko'nikmalari rivojlanadi.

- **Tarbiya:** Milliy qadriyatlarga befarqlik, muomala madaniyatining pasayishi, begona ta'sirlarga ko'r-ko'rona taqlid kabi holatlarning shaxs, oila va jamiyatga salbiy ta'sirini **xarita (mind-map)** shaklida tuzadilar. Shaxsiy "**Milliy**

madaniyat qoidalari” ro‘yxatini ishlab chiqadilar – kamida 5 ta amaliy qoida (masalan: ona tilini e‘zozlash, kattalarga hurmat, milliy urf-odatlariga amal qilish, madaniyatli muomala, ajdodlar merosini asrash).

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti. <https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o‘yin elementlari va qo‘shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to‘plami:

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

I. KIRISH QISMI (10 daqiqa)

O'qituvchi: Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar. Bugungi mavzuni e'lon qilishdan oldin sizlarga bir savol bermoqchiman. Sizningcha, davlatni kuchli qiladigan narsa nima?

O'quvchilar javob beradi: armiya, iqtisod, texnologiya...

O'qituvchi: To'g'ri, bularning barchasi davlatga kuch beradi. Lekin bular – ko'zga ko'rinadigan kuchlar. Ularni o'lchash mumkin, sanash mumkin, hatto solishtirish ham mumkin. Ammo yana bir kuch bor – u ko'rinmaydi, lekin juda katta ta'sirga ega.

(Pauza).

Nima deb o'ylaysiz: nega ayrim davlatlar haqida bizda iliq tasavvur shakllanadi? Nega ba'zi mamlakatlarni, biz u yerga hech qachon bormagan, o'z ko'zimiz bilan ko'rmagan bo'lsak ham, yoqtirib qolamiz? U yerga borgimiz, ko'rgimiz keladi, nima uchun? Nega ularning madaniyati bizni o'ziga tortadi?

O'quvchilar fikr bildiradi

O'qituvchi: Chunki biz ularni faqat xaritada o'rni emas, balki madaniyati orqali tanib olamiz. Ular milliy madaniyati namunalari: rassomchiligi, musiqasi, filmlari, san'ati, hatto odamlarning muomalasi orqali bizga ta'sir qiladi. Bizni majburlamaydi, lekin o'ziga jalb qiladi.

Doskaga yozadi.

YUMSHOQ KUCH

O'qituvchi: Bu tushuncha nimani anglatishini bilasizlarmi? Yumshoq kuch (**soft power**) – bu zo'rlik bilan emas, go'zallik, ma'no va ta'sir orqali hurmat qozonish demakdir.

Endi e'tibor bering: bu kuchning asosi nimada?

(Pauza).

Bu kuchning asosi – madaniyatda.

Doskadagi yumshoq kuch birikmasi oldiga "madaniyat =" deb yozadi.

MADANIYAT = YUMSHOQ KUCH

O'qituvchi: Agar bir davlat o'z madaniyatini to'g'ri namoyon qila olsa, u dunyoga o'zini tanitadi. U odamlarning fikrini o'zgartiradi, ularni o'ziga jalb qiladi. Bu jarayonda hech kim majburlanmaydi, aksincha, odamlar o'zlari qiziqib qoladi.

Siz oxirgi paytlarda qaysi davlat haqida ko'proq eshitdingiz? Yoki internetdan qaysi xalq, mamlakat haqida ma'lumot izladingiz? Nima uchun?

2-3 nafar o'quvchi qisqa javob beradi. O'qituvchi ularni umumlashtiradi.

O'qituvchi: Demak, ta'sir aynan madaniyat orqali bo'lyapti. Endi shu fikrni O'zbekistonga qo'llaymiz. O'zbekistonning bunday kuchi bormi? Biz dunyoga nima bera olamiz? Bizni boshqalar nima orqali taniydi?

O'quvchilar taxminiy javoblari:

- Maqom orqali;
- Lazgi orqali;
- Me'morchiligimiz orqali;
- Sport orqali;
- Odamlarimizning muomalasi orqali.

O‘qituvchi: Aslida, bularning barchasi – bizning madaniy kuchimizdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda madaniyatni rivojlantirish, uni asrab-avaylash va eng muhimi, dunyoga olib chiqish bo‘yicha juda katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Yangi madaniyat markazlari barpo etilmoqda, tarixiy obidalar tiklanmoqda, xalqaro festivallar o‘tkazilmoqda, milliy san’at va hunarmandchilik qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bularning barchasi bir maqsadga xizmat qiladi, ya’ni O‘zbekistonning madaniy qiyofasini dunyoga ko‘rsatish va uning “yumshoq kuch”ini mustahkamlashga.

Endi kelinglar, shu jarayonlarni aks ettirgan videoni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Buyuk kelajak, buyuk adabiyot, buyuk san’at sari

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/482

O‘qituvchi: Demak, biz bir muhim xulosaga keldik: madaniyat – bu shunchaki tarix yoki meros emas. Bu – bugungi kunning eng muhim ta’sir vositalaridan biri. Bu – strategiya. Bu – davlatning dunyo bilan muloqot qilish usuli.

Endi eng muhim savol: Siz bu jarayonda qayerdasiz? Siz bu kuchning bir qismimisiz yoki shunchaki tomoshabinmisiz?

Bugungi dars davomida biz aynan shu savolga javob izlaymiz: o‘zbek madaniyati qanday qilib dunyoga ta’sir qilmoqda va siz uning kelajagida qanday o‘rin egallaysiz?

Kelinglar, shu kuch nimadan iboratligini birgalikda tahlil qilamiz.

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O‘qituvchi: Demak, aziz o‘quvchilar, dars boshida biz bir muhim fikrni aytdik: dunyoda davlatlar faqat qudrat bilan emas, balki ta’sir bilan ham kuchli bo‘ladi. Bu ta’sirning eng nozik, eng samarali shakli – bu **yumshoq kuch**, ya’ni **soft power** dir.

Xo‘sh, O‘zbekistonning yumshoq kuchi nimada?

Albatta, o‘zbek madaniyatida. Chunki aynan o‘zbek madaniyati dunyoga biz haqimizda gapiradi. Bizni ko‘rsatadi. Biz haqimizda tasavvur paydo qiladi. Biz qanday xalqmiz? O‘tmishimiz qanday bo‘lgan? Qanday qadriyatlarimiz bor? Biz bilan qanday muomala qilish kerak? Bularning bariga o‘zbek madaniyatidan javob topish mumkin.

Savol: o‘zbek madaniyati qanday qilib yumshoq kuchga aylanadi?

Ilmiy jihatdan qarasak, o‘zbek madaniyati – bu xalqimizning asrlar davomida shakllangan **moddiy va ma’naviy boyliklar tizimidir**. Bu tizimga quyidagilar kiradi:

- til va adabiyot;
- urf-odat va an’analar;
- san’at va musiqa;
- hunarmandchilik;

- milliy taomlar;
- axloqiy qadriyatlar.

Ammo bu yerda eng muhim jihat shuki, bu elementlar bir-biridan alohida-emas. Ular birgalikda ishlaydi va bitta umumiy tasvirni yaratadi. Bu qanday tasvir?

Bu – o‘zbek xalqining obrazi. Chunki odamlar bizni shu orqali taniydi.

O‘zbek madaniyati deganda odamlarning ko‘z oldiga avvalo quyidagilar keladi (*doskaga yoziladi*):

Samarqand, Buxoro, Xiva me’morchiligi;

Shashmaqom va baxshichilik;

Lazgi raqsi;

Kashtachilik, kulolchilik, naqsh;

Palov va non madaniyati;

Mehmondo‘stlik va hurmat.

Endi o‘ylab ko‘ring: nega “o‘zbek madaniyati” deganda aynan shular ko‘z oldiga keladi? Chunki ularda go‘zallik, mazmun va autentiklik bor, ya’ni asllik, o‘ziga xoslik. Eng muhimi – ular insonni o‘ziga jalb qiladi. Aynan shu narsa “yumshoq kuch” ning asosiy mexanizmi sanaladi.

O‘zbek madaniyatida milliy raqslar ham alohida o‘rin tutadi. Raqslar xalqning quvonchi, bayramlari va turmush tarzini harakatlar orqali ifodalaydi. Masalan, Lazgi raqsi o‘zining jo‘shqinligi va ifodaviy harakatlari bilan ajralib turadi, Andijon polkasi esa yengil va sho‘x ohanglari bilan mashhur. Milliy raqslar bayramlar, tantanalar va madaniy tadbirlarda ijro etilib, xalqning madaniy birlik va ruhiyatini namoyon etadi.

Hozir biz **o‘zbek milliy raqslarining** yorqin namunasi bo‘lgan “Lazgi” raqsi haqida O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Matyoqubovaning qiziq talqinini tinglaymiz. Ekranga qaraymiz.

Vizual kontent

“Lazgini quyosh raqsi deb bilamiz”, – Gavhar Matyoqubova

<https://youtu.be/q7XL5QDsa8I>

O‘qituvchi: Kelinglar, bir amaliy mashq qilib, o‘zbek madaniyatining yumshoq kuchini anglashga urinib ko‘ramiz.

Sinf 3 guruhga bo‘linadi: Lazgi, Registon, Palov.

O‘qituvchi: Sizlar bu element o‘zbek madaniyati haqida dunyoga qanday signal berishini aytishingiz kerak. Masalan, “Lazgi – o‘zbek xalqining go‘zallik standartlari timsoli”, “Registon mahobati va buyuk davlatchilik tarixini ko‘rsatadi”, “Palov – mehmondo‘stligi va hamjihatligi ramzi” degan tezislarni asoslantirib har bir guruh 3 daqiqalik taqdimot nutqi tayyorlaydi. Guruhdan bir vakil bu nutqni doskaga chiqib gapirib beradi. Qani boshladik. Tayyorlanish uchun **3 daqqa**.

O‘quvchilar taqdimotlarni tayyorlaydilar va og‘zaki nutq shaklida taqdim qiladilar.

O‘qituvchi: Guruhda ishlab sizlar amin bo‘ldingizki, o‘zbek madaniyati biz haqimizda juda ko‘p narsani aytadi.

O'zbek madaniyati faqat tashqi ko'rinish emas. U – ajdodlarimizning tafakkuri va dunyoqarashi natijasidir. Hozir taniqli yozuvchi Nazar Eshonqulning o'zbek madaniyati tarixi va bugun dunyodagi o'rni haqidagi fikrlarini eshitamiz.

Vizual kontent

Nazar Eshonqul: “Madaniyat – bu ajdodlarimizning milliy kodi”

<https://youtu.be/goMs4zGrs6g>

O'qituvchi: Demak, o'zbek madaniyati – bu tirik jarayon. Shu sababli u kuchli va ayni damda “yumshoq kuch”dir.

Tarixga qaraymiz. O'zbek madaniyati Buyuk Ipak yo'li orqali boshqa madaniyatlardan ta'sirlangan. Shu bilan birga o'zi ham boshqa madaniyatlarga ta'sir o'tkazgan. Samarqand va Buxoro – bu faqat shaharlar emas, ular global madaniyat markazlari bo'lgan. Bu yerda turli madaniyatlar uchrashgan. Shu sababli o'zbek madaniyati dunyoga ochiq va boy madaniyatdir. Bu esa “yumshoq kuch” uchun eng muhim xususiyat. Hozir o'zbek madaniyatining asrlar osha rivojlanishi qanday bo'lganini ko'rsatuvchi videoni tomosha qilamiz.


Vizual kontent

O'zbek madaniyati tarixi

<https://youtu.be/bLKc4PNswTs>

O'qituvchi: O'zbek madaniyatining eng kuchli qatlamlaridan biri san'atdir. Shashmaqom – bu falsafa, baxshichilik – bu tarix, “Lazgi” – bu energiya va hayot demakdir.

Hunarmandchilikka qarang: kashtachilik xalqimizning sabri va go'zallik tuyg'usini, kulolchilik shakl va mazmun uyg'unligi, yog'och o'ymakorligi ilm va san'at birligini ko'rsatadi. Ya'ni o'zbek madaniyati chuqur tafakkurga va falsafaga ega yuksak madaniyatdir.





Avvallari bizda qo'g'irchoq teatrlari, chodirxayol, dor o'yinlari, masxarabozlik kabi teatr unsurlari xalq ijodiyoti yo'nalishida rivojlangan bo'lsa ham, haqiqiy professional teatr 1914-yil Behbudiyning "Padarkush" dramasidan

boshlandi. O'sha paytlar asosan xalqqa ma'rifat yoyish va zamon chaqiriqlarini ta'sirli yetkazish vositasi bo'lgan sahna san'ati bora-bora estetik va fikriy zavq beradigan yetuk san'at yo'nalishiga aylandi. Hamza Hakimzoda Niyoziydan tortib Abror Hidoyatov, Yetim Bobojonov, Sora Eshonto'rayeva, Ma'suma Qoriyeva kabi teatr darg'alarining ijod namunalari o'zbek madaniyatining oltin merosi sifatida qadrlanadi.

Hozir ana shu san'at maskaniga qilingan videosayohatni birgalikda tomosha qilamiz.

Vizual kontent

O'zbek milliy akademik drama teatri bilan suhbatlashdik

<https://youtu.be/1oxRbdyLiWA>

O'qituvchi: O'zbek madaniyatining yana bir kuchli yo'nalishi milliy taomlardir. O'zbek palovi bejizga UNESCO merosi ro'yxatiga kiritilmagan. Yurtimizda palovning 40 dan ortiq turi mavjud. Va eng qizig'i, bu noyob nusxa sifatida muzeyda saqlanadigan eksponat emas, balki har bir o'zbekistonlikning kundalik hayotida mavjud madaniyatdir. Aynan shu jihat o'zbek milliy taomlarini kuchli qiladi. Dunyoga dong'i ketgan o'zbek taomlarini tatib ko'rish uchun sayyohlar yurtimizga keladi, bu "**gastroturizm**" degan alohida yo'nalish bo'lib, yildan yilga rivojlanmoqda. O'zbek milliy taomlari o'zbek madaniyatini dunyoga mashhur qilayotgan brend deyish mumkin.

Aziz o'quvchilar, o'zbek madaniyati – bu O'zbekistonning "yumshoq kuchi" ekanligini angladik. U bizni dunyoga tanitadi, bizga hurmat olib keladi, bizni boshqalarga yaqinlashtiradi.

Eng muhimi, bu kuch sizlar orqali davom etadi. Siz bu madaniyatni anglasangiz va sevsangiz, u kuchayadi. U kuchaysa, bizning dunyoga ta'sirimiz ham kuchayadi. Ya'ni sizning madaniyatimizga to'g'ri munosabatingiz nima uchun muhimligini angladingizmi? Bu siz-u bizning dunyodagi o'rnimiz, mavqeimiz masalasi. Siz uni bilsangiz va qadrlasangiz, u dunyoga yanada ko'proq chiqadi.

III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O'qituvchi: O'zbek madaniyati – bu faqat tarix emas, balki bugungi kun hamdir, albatta, kelajak ham unga bog'liq.

Biz bugun o'zbek madaniyati naqadar boy, chuqur va katta ta'sir kuchiga ega ekanini ko'rdik. U faqat ichimizda yashaydigan qadriyat emas, balki dunyoga chiqadigan, boshqalarga ta'sir qiladigan kuchdir.

Eng muhim savol: bu madaniyatning ertasi qanday bo'ladi?

Siz qanday bo'lsangiz, shunday bo'ladi!

Agar siz o'zbek tilida chiroyli gapirsangiz, madaniyatimizni yaxshi bilsangiz va u bilan faxrlansangiz – madaniyat kuchayadi.

Sizlar – o'zbek madaniyatining davomchisiz. Sizlar – uning kelajagisiz. Sizlar – O'zbekistonning yumshoq kuchisiz. Sizlar orqali dunyo bizni ko'radi, tushunadi va hurmat qiladi.

Endi sizlarga kichik, lekin juda muhim vazifa beraman.

Bugundan boshlab har biringiz o'zbek madaniyatiga kichik bo'lsa-da hissa qo'shishni boshlang. Ona tilida to'g'ri va chiroyli gaping, milliy qadriyatlarni o'rganing, san'atga, hunarga qiziqing, o'z xulqingiz bilan boshqalarga namuna bo'ling.

Esda tuting: kuch faqat bilakda emas, asosiy kuch ruhimizda va qalbimizda. O'zbek xalqining eng katta kuchi uning ulkan va go'zal madaniyatidadir. Uni biling, seving, qadrlang. Shunda siz nafaqat o'zingizni, balki butun O'zbekistonni kuchli qilasiz.

Shu bilan darsimiz o'z nihoyasiga yetdi. Keyingi darsda ko'rishguncha.